



**TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLILIGINI
OSHIRISH YO'LLARI**

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya
va buxgalteriya fakulteti
sh.mamayusupova@tsue.uz*

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti, Kompyuter ilmlari va dasturlash
texnologiyalari yo'nalishi magistri
maqsudu32@gmail.com*

Mavlonova Muxlisa Nizomiddin qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Matematika va informatika yo'nalishi 2-kurs
talabasi*

PhD F.E.Qodirov

*Shahrisabz davlat pedagogika institute,
Informatika va uni o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri*

Respublikamiz hududlarida bank tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko'lamini kengaytirish borasida olib borilayotgan keng chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish va modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni ta'minlash, ularning erkinligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda bank tizimi milliy iqtisodiyot ravnaqini belgilovchi asosiy mexanizmga aylanib borayotganligi zamonaviy bank mahsulotlari qatorida aktivlarning sifat darajasini, samaradorligini oshirishni taqazo etmoqda. Banklarning muxim funksiyalaridan biri bu - kreditlash jarayonida ishtirok etishdan iboratdir. Bunga yaqqol misol sifatida 2022- yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kreditlarning aktivlardagi ulushi 73.8 foizni tashkil qilganligi ham gapimizning yaqqol isboti. Quyida esa tijorat banklarining aktiv operatsiyalari daromadliligi bo'yicha turlarga ajratilishi ko'rib o'tamiz.



Aktiv operatsiya daromadlilik
bo'yicha turlar

Qat'iy foizlardan
keladigan
daromadlar

Brokerlik
xizmatidan
komission mukofat

Qimmatli qog'ozlar
kurs o'sishidan
daromad

Depozitar faoliyatda
daromat

1-rasm Aktiv operatsiyalarining daromadlarga qarab tasniflanishi³³⁵

Ma'lumot olish uchun quyidagi manbalardan foydalaniladi:

- Kompaniyaning yillik va choraklik hisobotlari;
- Kompaniya to'g'risidagi bosmadan chiqarilgan ma'lumotlari;
- Aksionerlarning yig'ilishida omma uchun taqdim qilingan ma'lumotlar;
- Ixtisoslashgan tashkilotlarning va boshqa fond bozori ishtirokchilarini

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rib turibmizku tijorat banklari aktivlarining daromad keltirishi belgilangan foiz stavkalari, nijozlarga ko'rsatayotgan konsalting xizmatlari va qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishi bilan belgilanmoqda. Quyida esa biz tijorat banklari aktivlarining tarkibini ko'rib chiqib bazis yiliga nisbatan solishtirib chiqamiz.

Resurs – fransuzcha "Resurs", so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, imkoniyat, zahira, daromad manbai, xom-ashyo va boshqalar anglatadi. Iqtisodiy manbalarda "resurs" so'zi ko'pincha turli xil ma'nolarda uchraydi. Rossiyalik olim O.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Masalan: tabiiy resurslar, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqalar. Shunga asoslanib, iqtisodiy resurslarni iqtisodiy imkoniyatlarning asosiy



elementlaridan biri sifatida qarash mumkin. U jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida taqsimlanadi deya taqsimlanadi. Resurslar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishish uchun ishlatiladi. Iqtisodiy resurslarning aksariyati-bu moliyaviy resurslar hisoblanib, ularni pul va soliq resurslari tashkil etadi va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Moliyaviy resurslarning asosiy manbalari bo'lib vaqtinchalik bo'sh mablag'lar, soliqlar, jismoniy shaxslarning mablag'lari, chek omonatlarini berish bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblanadi. Moliyaviy resurslarning ajralmas qismi bo'lgan bank resurslarini ko'rib chiqamiz.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2020-yil 1-yanvar holatiga kredit qo'yilmalari 76.1 foizni tashkil etgan bo'lsa 2021-yil 1-yanvar holatiga kelib 73.8 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichning pasayishiga asosiy sabab Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar ortishi bilan izohlashimiz mumkin. Boshqa banklardagi mablag'lar norezident 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa 2021-yil 1-yanvar holatiga kelib 5,9 foizni tashkil etgan. Ya'ni mamlakatimiz tijorat banklarining chet el banklarida ochilgan xisob varaqlaridagi mablag'lari ortgan, bu esa ijobiy holat chunki banklarimizning chet el banklari bilan hamkorlik aloqalari kengayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Markaziy bankdagi mablag'lar 2020-yil 1-yanvar holatida 5,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 27,6 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.(1-jadval)

1-jadval

Tijorat banklari aktivlari tarkibi

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2020 й.		01.01.2021 й.		O'zgarishi, foizda
	млрд. so'm	ulushi, foizda	млрд. so'm	ulushi, foizda	
Aktivlar					
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	6 553	2,4%	9 735	2,7%	48,5%
Markaziy bankdagi mablag'lar	14 769	5,4%	18 851	5,1%	27,6%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	10 089	3,7%	13 146	3,6%	30,3%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	15 420	5,7%	21 701	5,9%	40,7%



Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	3 157	1,2%	9 448	2,6%	199,2%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	411	0,2%	1 576	0,4%	283,8%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	207 646	76,1%	270 213	73,8%	30,1%
Asosiy vositalar, (sof)	5 723	2,1%	8 314	2,3%	45,3%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	3 306	1,2%	7 882	2,2%	138,4%
Bankning boshqa xususiy mulklari	353	0,1%	1 131	0,3%	220,6%
Boshqa aktivlar	5 299	1,9%	4 125	1,1%	-22,2%
Jami aktivlar	272 727	100%	366 121	100%	34,2%

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, banklarda samaradorlik ko'rsatkichlari bank aktivlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarish omillarini namoyon etadi. Ushbu omillar tahlili asosida bank rahbariyati tomonidan aktivlarning joriy va istiqbolli holati baholanadi. Bank aktivlari samaradorlik ko'rsatkichlari bank-moliya tizimining yuqori pog'onasidagi kredit-moliya institutlariga nazorat va baholash funksiyasini amalga oshirishda zarur ma'lumotlarni yig'ib berish imkonini yaratadi. Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bank tizimining investitsiyaviy salohiyatini baholashda muhim o'rin tutadi. Bank aktivlari samaradorligini oshirish modeli aktivlar bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning yuzaga kelish sabablarini batafsil bayon etishi, aktivlarning xar bir turini qay darajada joylashtirilganligi, aktivlardan kurilayotgan foyda darajasini aniqlab berishi zarur.

REFERENCES

1. Антология концептов. Под ред. В. И. Красика, И. А. Стернина. Том 1. Волгоград: Парадигма, А 21 2005. – 352С.
2. То'xtasinova N.R. Uyat" konsepti tadqiqi. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 2-сон . Рр. 361-364.
3. Kaziyev Z. Muomala psixologiyasi.- T.,2001
4. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224-b.
5. Muhabbat / A.Qahhor. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 248b.
6. Medetovna, A. F. (2018). A Formation of Professional Competence At Future



- Pharmacists. *Asian Studies*, 36(2), 1-5.
7. Medetovna, A. F. (2021). Harmonization of professional and personal competencies in future pharmaceutical personnel. *Thematics Journal of Sociology*, 5(2).
 8. Akhmedova, F., & Rozikova, R. (2021, April). ENHANCING LANGUAGE TEACHERS' SELF-EFFICACY THROUGH PEER OBSERVATION IN HIGHER EDUCATION. In Конференции.
 9. Ахмедова, Ф. М. (2021). ATTITUDE OF YOUNG PEOPLE TO EDUCATION. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 4(4).
 10. Bekmurodov, M., Akhmedova, F., & Kadirova, K. (2020). Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 597-605.
 11. Abdurakhmanova, D. K., Karimova, N. M., & Sh, B. R. (2019). Modern Problems of Linguistics and Methods of Teaching English Language. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 15-17.
 12. Ubajdullaev, S. N. (2021). The use of mental cards when teaching a foreign language for university students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT)*(ISSN: 2509-0119), 25(2), 90.
 13. Karimova, N. (2024). THE PROCEDURE FOR WARNING RESIDENTS OF THE NEIGHBORHOOD ABOUT EMERGENCY SITUATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1).
 14. Karimova, N. (2023). ORGANIZING POPULATION RELOCATION MEASURES WHEN THE RISK OF EMERGENCIES ARISES AND OCCURS. *Modern Science and Research*, 2(10), 361-363.
 15. Karimova, N. (2023). FIRST AID FOR THE INJURED IN EMERGENCIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 364-367.
 16. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 475–479. VOLUME03 ISSUE06 PAGES, 39, 47.
 17. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. *Интернаука*, (9-2), 76-78.
 18. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the English



renaissance (XVI c.). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 949-957.

19. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning English with the help of songs. Теория и практика современной науки, (4 (34)), 578-581.
20. Давлатова, М. Х. (2021). The Expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).
21. Давлатова, М. Х. (2021). Резултативликнинг аспекти тадқиқотлар доирасида ўрганилиши. Scientific progress, 2(2), 1678-1683.

